

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 17.021.2

ABU ISHOQ KALOBODIY ILMIY MEROSINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI MASALALARI**ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АБУ ИСХОКА КАЛОБАДИ В СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ****ISSUES OF STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ABU ISHAQ KALABADI IN MODERN RESEARCHES****Tojiddinov Abdusamad Abdulbosid o'g'li** 
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada X asrning yirik tasavvuf nazariyotchisi va shayxi Abu Ishoq Kalobodiyning ilmiy merosi tahliliga bag'ishlangan. Kalobodiyning tasavvuf ilmiga qo'shgan hissasi, ta'lif etgan asarlari ularning mazmuni mohiyati ochib berilgan. Shu bilan birga uning merosiga bo'lgan qiziqish, amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida izlanishlarning natijasi o'laroq xulosalar berilgan. Kalobodiyning nafaqat tasavvuf ilmi balki, uning hadis ilmidagi o'рни, yozib qoldirgan asarlari xususidagi mulohazalar, Kalobodiy ilmiy merosining o'ziga xos xususiyatlari keng tahlil etilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу научного наследия Абу Исхака Калобадия – выдающегося теоретика суфизма и шейха X века. В статье раскрываются вклад Калобадия в науку тасаввуф, его написанные труды, их содержание и сущность. Также представлены выводы, сделанные в результате исследований, посвящённых интересу к его наследию и проведённым научным изысканиям. Широко проанализированы не только вклад Калобадия в науку тасаввуф, но и его роль в науке хадис, размышления о написанных им произведениях, а также уникальные особенности его научного наследия.

Abstrac

This article is dedicated to the analysis of the scientific heritage of Abu Ishaq Kalabadi, a prominent 10th-century Sufi theorist and sheikh. Kalabadi's contribution to the science of Sufism, the works he authored, and the content and essence of those works are revealed in the article. At the same time, the article presents conclusions as a result of research conducted on the interest in his heritage and the studies carried out in this regard. Not only Kalabadi's contributions to Sufi science but also his role in the field of Hadith, reflections on his written works, and the unique characteristics of his scientific heritage are thoroughly analyzed.

Kalit so'zlar: meros, ilm, ma'rifat, tasavvuf, sunna, hadis, kalom, irfon, diniy ilm, dunyoviy ilm, inson, ma'naviyat.

Ключевые слова: наследие, наука, просвещение, суфизм, сунна, хадис, калам, ирфан, религиозные знания, светские знания, человек, духовность.

Key words: heritage, science, enlightenment, Sufism, Sunnah, hadith, kalam, irfan, religious knowledge, secular knowledge, human, spirituality.

KIRISH

Movarounnahr o'ziga xos tabiati va geografik joylashuvi nuqtai nazaridan Markaziy Osiyoning o'ziga xos mintaqasi hisoblanadi. Bu zaminda azaldan ilm va ma'rifat qadrlanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Ilm-fanning qaysi sohasini olmaylik unda Movarounnahr allomalarining beqiyos hissasini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, Buxoroning o'rta asrlarda "ilm qala'si", "Qubbattul-Islom", "Buxoroyi shariif" nomlari bilan sharaflanishida ham chuqur ma'no bor. Dunyoning ko'zga ko'ringan va o'z davrida mashhur bo'lgan bunday shaharlari ko'p. Ularda ham buyuk kishilar yashgan, insoniyat uchun boy ma'naviy meros qoldirganlar. Biroq, buxoroda tug'ilib o'sgan va insoniyat uchun bebaho kitoblar yozib qoldirgan allomalar takrorlanmaydi. Shu ma'noda Imom Buxoriyning "Shihi Buxoriy", Ibn Sinoning "Tib qonunlari" va boshqa asarlari, Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning "at-Taarruf" asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Buxoro va uning tarixi, allomalari merosi bilan shug'ullangan xorijiy va mahalliy olimlar o'z tadqiqotlarida, asarlarida o'z fikrlarini bildirib ularning ilmiy merosini qadrlaganlar.

Yana bir jihati Movarounnahr ilmiy ma'rifiy muhiti islomning kirib kelishi bilan yanada har tomonlama kengayib, ilm-fan sohasi rivojlanib bordi. Bu o'lkada turli g'oyalar, ta'limotlar, qarashlar,

FALSAFA

mafkururalar to'qnashib, yoki uyg'unlashib yangi bilimlar qarashlar, ezgu g'oyalarning vujudga kelishiga zamin yartgan. Shu nuqtai nazardan, bu ulkan merosni o'rganish, taraqqiyot qonuniyatlarini, rivojlanish tendensiyalarini bilish imkonini beradi hamda zamonaviy bilimlar uchun zamin yaratadi, ularni uyg'unlashtirib borishga undaydi.

Shuningdek, bu davrning murakkab va har bir davr uchun muhim g'oyalarning vujudga kelish shart-sharoitlarini, omillarini ham o'rganish muhim sanaladi. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari hayotida islom dini va shiati jamiyat madaniy-ma'naviy hayotiga chuqur singib borgan. IX-XII asrlardagi Sharq Renessansi ham o'z o'rnida o'lkadagi madaniy rivojlanishga o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatgan edi. Ijtimoiy hayotda kishilar turmush va tafakkur tarzi, xalqlarning milliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda shakllangan edi. Musulmonlarning shia va sunniy oqimlariga bo'linishi islomda xorijiyalar, qadariylar, mo'taziliylar va shunga o'xshash qator firqa va mazhablar paydo bo'lishiga olib kelgan edi. Bu bo'linishlar o'sha davr madaniy-ma'naviy hayoti va tafakkur tarziga o'z ta'sirini o'tkazib, kishilar tafakkurining turlicha ta'sirlar asosida shakllanishiga olib kelgan.

Vaqt o'tishi bilan payg'ambar vafotidan keyin islom dini yoyilib hududlari Sarq va G'arbga qarab kengaya boshladi. O'rta asrlarda vujudga kelgan bunday murakkab vaziyat va tafakkur tarzini uch muhim bosqichga bo'lish mumkin[1.7.].

Birinci bosqich Yasrib shahrining Madinatu-n-nabiy (Payg'ambar shahri) deb atalishidan boshlab "Xulafoi roshidiyn" ("To'g'ri yo'ldan yurgan xalifalar"), ya'ni Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Toliblar xalifaligining (632-661y.) oxirigacha bo'lgan davr.

Ikkinchi bosqich ancha uzoq davom etgan davr bo'lib, u xalifalikning ummaviylar va abbosiylar barham topib, yangi davlatchilik shaklining vujudga kelishi va Islom dunyosining G'arb bilan tanishuviga qadar bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich islom dunyosining G'arb va uning madaniyati bilan tanishuvidan boshlanib hozirgi kungacha davom etadi.

Islom tarixida birinchi bosqich (632-661y.) alohida e'tiborga ega bo'lgan davr hisoblanib, unda jamiyatdagi yangicha tafakkur va turmush tarzining o'ziga xos an'analari, Qur'on va Sunnaga asoslanib joriy qilingan. Chunki o'rta asrlarga xos turmush va tafakkur tarzi aynan shariat qonun-qoidalariga payg'ambar hadislariga asosida shakllangan edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

VIII-IX asrlarda Movarounnahr xalqlari ma'naviy hayoti va madaniyatida katta o'zgarishlar ro'y berib, nafaqat O'rta Osiyo, balki butun musulmon Sharqi tarixida chuqur iz qoldirgan. O'lkada moziy e'tiqodlari o'rnini islom dini mustahkam egalladi. Islom nafaqat din balki, yangi bir ma'naviy yo'nalish u madaniy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatib, musulmon mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy aloqalarning kuchayishiga ham olib keldi. Bu aloqalarning samarasi o'laroq diniy va dunyoviy ilmlarning uzviy holda rivojlanishiga, ilm-fanga hurmat e'tiborning oshishi hamda uning qadrini ko'tarishda muhim omil bo'ldi. Qadimgi yunon, hind va boshqa xalqlarning ilmiy salohiyatidan keng foydalanishga e'tibor berildi. Shuningdek, manbalarda keltirilishicha shu davrlardan boshlab ilm maskanlari, madrasalar, maktablar barpo etila boshlandi.[2.7.]

IX asrda arab xalifaligining poytaxti Bog'dod shahridagi "Baytul-hikma" ("Donishmandlar uyi") ilmiy markazining asosiy olimlari O'rta Osiyolik Xorazmiy, Farg'oni, Javhariy, Abu Mansur va Marvaziy kabi olimlarning aniq va tabiiy fanlar sohasidagi faol xizmatlari ulkan ahamiyat kasb etadi. Ular tadqiqotlari ilmiy sayohatlari orqali ilm fan rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Xalifa Ma'mun (197-218/813-833yy.) va Vosiq (227-232/842-847yy.) xalifalik qilgan yillarda Xorazmiy boshchiligidagi olimlarning kitob yig'ish uchun G'arbiy Hindiston, Rum, Xazariya hududlariga safarlari bunga misola bo'la oladi [3.37.].

X asrda Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Chunki bu davrga kelib asrlar davomida hukmronlik qilib kelayotgan Arab xalifaligining siyosiy mavqeyi pasaya boshlagan va Somoniylar davlati tashkil topib, bu davlat yangicha tartib qoidalar asosida boshqarila boshlagan. Movarounnahr va Xurosonda ham xorijiyalar, qadariylar, mo'taziliylar va shunga o'xshash qator firqa va mazhablar paydo bo'ldi. Bu bo'linishlar keng tarqalgan aqidaviy masalalardagi muayyan ixtiloflar fikr va qarashlarning ham bir-biridan farqlanishiga olib kelgan edi.

Movarounnahrda Buxoro va uning atrofida madaniy muhit, islom ilmlari ayniqsa, fiqh, hadis, kalom, tasavvuf bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham rivoj topdi. Islom ilmlari aynan Buxoroda

rivojlanganligi umume'tirof etilgan. Islom dinining kirib kelishi, arab tilini o'rganilishi ma'naviy hayot uchun o'ziga xos omil bo'ldi.

Shu bilan birga xonaqoh, rabot va boshqa markazlar tasavvufning tashkiliy uyushishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgani uchun so'fiyona g'oyalarni tarqatuvchi o'ziga xos markazlar ham edi. Buxoro bu borada o'ziga xos eng katta markazlardan biriga aylangan edi. X asrdan boshlab xonaqohlardagi suhbatlar, muqaddam yashab o'tgan shayxlar hayoti haqidagi hikoyalar shayxlarni ham, ularning izdoshlarini ham qoniqtirmay qo'ygan. Tasavvuf kalom, hadislarni turkumlash, to'plash ular haqida asarlar yozishga ehtiyoj vujudga keldi. Bu asarlarda asosiy nazariy qoidalar, so'fiylarning amaliy faoliyati uchun ko'rsatmalar, so'fiyona yo'lga o'tishning uslublari, turmush tarzlarini chuqurroq va mantiqiy tartibliroq aniqlash va yoritish, maqomlar tartibi, ularning orasidagi chegaralarni, holatlarini aniqlash, mashhur shayxlar hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va yozib qoldirishga kuchli zarurat paydo bo'ldi. Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarining islom tasavvufi asoslari sifatida o'rganilmasdan tasavvufning sofliğini saqlab qolish imkoniyati tobora yo'qolib bormoqda edi. Hadishsunoslikdagi muamolar ham, ayniqsa, soxta hadislarning paydo bo'lishi yoki zaif hadislarning qo'llanishi ham ba'zan ixtiloflarga sabab bo'lar edi. Chunki, davrning ijtimoiy-ma'naviy muhitida shakllangan turli asossiz tariqatlar harakatchilik va mazhabiy-siyosiy tus ola boshlagan bu davrda hadislarni ham o'z manfaatlariga bo'ysuntirish ko'zga tashlanadi. Xonaqohlardagi hayot tarzi ham turlicha shaklda rivojlanib bordi. Shu yo'nalishda ingliz olimi Dj.Trimingem tariqatlar vujudga kelishi va taraqqiyotini uch bosqichga bo'lib tahlil etgan. U bu yo'lining shaxs kamoloti ta'siriga qarab bosqichlarga ajratgan. Birinchi bosqichda IX-XII asrlarni o'z ichiga oladi. Shaxs Allohgagina bo'ysungan deb, uni xonaqoh deb nomlaydi. Bu bosqichni u tariqatlar taraqqiyotining oltin davri deb ta'riflaydi. Ikkinchi bosqichni tariqa deb ataydi. Demak, o'rta asrning tariqatchiligidagi rivojlanishi goyaviy va mafkuraviy xilma-xillik, islomiy tariqatlarning islom asoslariga moslashib borishi davr ma'naviy-axloqiy muhitida ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Asosiy g'yasi poklanishdan va Allohga yuksalishdan iborat bo'lgan tariqat g'oyalari tamoyillari ruhiy-ma'naviy jihatdan yaxshilikka, ezgulikka da'vat qildi.

Abu Ishoq Kalobodiy ana shu muhitda tug'ilib, o'z zamonasining eng zabardast allomalari asarlaridan, ta'limotlaridan bahramand bo'lgan. Uning dunyoqarashi, ilmiy salohiyati shunday muhitda shakllandi va yuksaldi. O'zining "At-ta'arruf li mazhabi ahli-t-tasavvuf" ("Tasavvuf ahlari mazhabi bilan tanishish"), hadis ilmida "Bahrul-favoid" asarlari bilan shuhrat qozondi, "to'jul-islom", "Shayx al-Olam" degan yuksak nomga ega bo'ldi. Bularning bari uni islom ilmlari ustozlaridan biri maqomiga ko'taradi hamda uning nafaqat tasavvufda balki hadis ilmida ham o'z nufuzi borligini ko'rsatadi. Buxoro mozorlari tarixini yozgan Ahmad ibn Mahmud Buxoriy mutasavvif nomini hurmat bilan tilga olib "Abu Bakr Kalobodiyning holu ahvollari bayonga muhtoj emas. Zahmat chekib orasta (poklash) berishdan ko'ra o'zlari orastadir" [4.72.]- deb yozadi.

Abu Ishoq Kalobodiy fiqh, hadis, kalom ilmlari bilan ham mukammal shug'ulangan asarlarini arab tilida yozgan yirik alloma sanaladi. Bu uning o'z davri ilmiy muhiti, tasavvufiy muhitining yirik arbobi ekanligini ko'rsatadi. Tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim o'rin tutgan Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlarida islom ilmlari keng rivojlangan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablarining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Albatta, bu davrda vujudga kelgan ko'plab tariqatlarda islom ahkomlaridan uzoqlashish xavfi bor edi. Tasavvuf g'oyalri boshqa ta'limotlardan ta'sir olganligini ham inobatga olish muhim sanaladi. Shu bilan birga, ularning Qur'on va Sunnaga asoslanishida ham o'ziga xos muammolar bor edi. Tasavvuf ham Qur'onsiz hadissiz tasavvuf bo'la olmasdi. Chinki, tasavvuf tarixi shuni ko'rsatadiki, shayxlar yoki zoohidlar orasida chuqurlashib turli mutaassiblik holatlarini ham qayd etgan edilar. Mansur Xalloy yorqin dalili bo'la oladi. Bu yo'nalishda islom olimlari tomonidan fiqh, hadis ilmlariga e'tibor qaratilishi islom va tasavvuf ilmlarini mustahkamlanishi Movarounnahr va Xuroson xalqlari dunyoqarashi va tafakkurini kengaytirishga madaniy-ma'naviy hayot tarzini yaxshilashga xizmat qilgan. Kalobodiyning qarashlari aynan bu harakatlarda eng muhim ahamiyat kasb etgan edi. Shu bilan birga islom dinining Movarounnahr xalqlari madaniyati an'analari o'zlashtirib olish xususiyati, uning mahalliy muhitga singib ketishiga va mahalliy halqlarning "o'z diniga" aylanishida asosiy omil bo'ldi [5.3].

Movarounnahrda Abu Ishoq Kalobodiyga zamondosh Abu Hanifa izdoshlaridan biri al-Moturidiy (vaf. 333/944 y.) o'z salohiyati bilan, al-Jubboiy (vaf. 303/915y.), Abu Hoshim (vaf. 321/933 y.), al-Ka'biy (vaf. 319/931 y.), Muso al-Ash'ariylar (vaf. 324/935-936 y.) bilan bir qatorda kalomning mumtoz davri asoschisi darajasiga ko'tarilgan. Abu Ishoq Kalobodiy ham ularning

FALSAFA

an'analarini davom ettirdi. Uning ilmiy faoliyati, ana shunday yirik allomalar ilmlari ta'sirida rivojlandi. Aytish joizki, o'rta asrlarga kelib, islom falsafasi maqomida "Kalom", aql va dunyoviy bilimga tayanadigan "al-falsafa", shuningdek, mo'tazillilarning o'zaro bir-birini inkor etuvchi ta'limotlar sifatida bahs munozaralarga kirishdi. Tasavvufning o'ziga xos murakkab bir ta'limot darajasida dinning ayrim tamoyillari doirasidan chiqishi, uning hurfikrlilik manbai sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi. Avvalroq Abu Ishoq Kalobodiy keyin Abu Homid G'azzoliyning tasavvuf va islomni kelishtirishga harakat qildilar. Tasavvuf Qur'on va Sunna bilan tasavvuf. Shu ma'noda, Abu Ishoq Kalobodiyning asarlarida har bir tasavvufiy masala ushbu asosga qurilgan edi. Ayniqsa, uning "Bahrul-favoid" asari Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ning 527 hadislaridan ajratib olingan 222 ta yuksak axloqiy hadislariga bag'ishlangan. Ilk o'rta asrlarda tasavvuf g'oyalarining shakllanishi, islomning keyingi diniy huquqiy majmuasi asosini tashkil qilgan asarlarning mualliflari bo'lgan mutafakkirlar orasida hadisshunoslik harakatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon aynan muhaddislar tomonidan "Ilm" borasida olib borilgan muzokaralar davrida ro'y berdi. Imom G'azzoliy ijodi o'sha dastlabki fikrlarning foydali ekanligini tasdiqlaydi. Ilm to'g'risidagi birinchi fikr muqaddimalar an'anasi, nazarimizda Buxoriyning "as-Sahih" idan boshlangan bo'lib G'azzoliyning "Ixyoi ulum ad-din" asari kirish qismi bo'lgan ilmlar kitobida o'z cho'qqisini egalladi.

Abu Ishoq Kalobodiyning ilmiy salohiyati bular bilan chegaralanib qolmaydi. Ilmga chanqoq alloma o'sha davrlarda ancha shakllangan, biroq turli qarshiliklar girdobida qolgan tasavvuf ta'limotini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganishni maqsad qiladi. U o'z davrining etuk shayxlaridan Shayx Sayyid Abul-Hasan al-Alaviy Hamadoni (vafoti 395/1004 y.) huzurida tariqat yo'llari, so'fiylik holatlarini o'zlashtiradi.

Bunday ulug' siymolarni Buxoro xalqi, Buxoro mentaliteti va Buxoroning o'ziga xos ijtimoiy va e'tiqodiy munosabatlari tarbiyalagan. Buxoro allomalari islomning insonparvarlik mohiyatini butun dunyoda targ'ib va tashviq qilishda ham o'zlarining tashabbuskorligini namoyish qilgan. Islom dini kirib kelishi va diniy ilmlarning rivojlanishi ham shu asrlarga to'g'ri keladi. **Muhammad ibn Hasan Shayboniy (vaf. 805 y.) ning shogirdi Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (768 - 832) (Ahmad ibn Hafs ibn Zaburqon ibn Abdulloh ibn Buxoriy) Xanafiya mazhabining Buxoro maktabiga asos solib, Buxoro nomini dunyoga yoydi. Narshaxiyning yozishicha "Abu Hafs Kabir Buxoriyning sharofati bilan Buxoro "Qubbatu-l-islom" – "Islom dinining gumbazi" unvonini olgan [6.3.]. Uning o'g'li Abu Abdulloh Abu Hafs Sag'ir Buxoriy (800-877) ham buyuk faqih bo'lib etishdi, dastavval ta'limni Bag'dodda olgan. Shu davrda Buxoroda Abu Xafs Kabir Buxoriyning faqihlar maktabi faoliyat olib borgan. Bu ikkala ota-bola ulamolarning ilmiy salohiyatiga tayanib, Buxoroning shuhrati dunyoga yoyildi[7.72.].**

Buyuk muhaddis olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Bardazbeh ibn Bardazbeh Ju'fiy Buxoriy (810-870) [8.5.] hadis ilmida dunyodagi hadisshunoslarining eng peshqadam vakili bo'ldi va bu olim Buxoro shuhratini butun dunyoga yoydi. Uning asosiy xizmati insoniyatga namunali ahloqiy madaniyatni targ'ib etish, halollik, pokizalik, mehr-muruvvatlilik, sabr-toqat, shukronalik va insonparvarlik odobini Muhammad a.s. sunnatlari timsolida yoyishdan iborat bo'ldi.

TALQIN VA NATIJALAR

Buxoroda nafaqat diniy ilmlar, balki dunyoviy ilmlar: matematika, geometriya, trigonometriya, geodeziya, astronomiya, geografiya, tibbiyot, kimyo singari ilmlar, me'morchilik, zardo'zilik, qandakorlik, misgarlik singari hunarlar ham nihoyatda rivojlangan edi. Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn al Hasan ibn Ali ibn Sino (g'arbda Avitsenna (980—1037) buyuk faylasuf olim sifatida jahon intellektual bazasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Matematik va astronom Shamsiddin Buxoriy dunyodagi tanilgan astronomik zijlarni qiyosiy tahlil qilib chiqqan. Bir qancha kimyogarlar, muxandislar va me'morlar Buxoroning gullab-yashnashiga o'z hissalarini qo'shishgan. O'sha davrda Buxoroda rangli shishalar bilan saroylarni bezash, chinni idishlar yasash, jarroh-tabiblarning nozik tibbiy asbob-uskunalarini tayyorlash, kimyoviy reaktivlar va idishlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Balxdan va Hindistonlik savdogarlar bu buyumlarni qimmatbaho javohirlarga almashtirib olib ketishgan. Demak, Buxoro nafaqat ilm-fan balki, tijotchilar uchun muhim markaz, foydali shahar bo'lgan.

Buxoro o'zining yuksalishini somoniylar va qoraxoniylar davrida yanada yuqori darajaga ko'taradi. Somoniy hukmdorlar ilmga, olimlarga hurmat ko'rsatdilar, ularning ijodi uchun keng imkoniyatlar yaratdilar. Ismoil Somoniy ilmga qiziqishi yuksak va e'tiborli bo'lib, ilm va olimlarni

qadrlaydigan inson sifatida o'z farzandlari, naveralarini ham shunday xislatli bo'lishi uchun imkoniyatlar eshigini ochgan. Amirlardan Nuh Ibn Nasr davrida Abu Ishoq Kalobodiy yashab ijod etgan. Nuh Ibn Nasr doim olimlar, ulamolar bilan muloqotda bo'lib turgan. Davlat ishlarida ularning maslahatlaridan, ilmlaridan foydalangan Somoniy hukmdolar ilmga, olmlarga iltifot ko'rsatibgina qolmasdan, o'zlari muhaddis va Qur'on hofizlari bo'lishgani manbalarda keltiriladi [9.14.].

Bu davrda fiqh ilmi ham rivojlangan. Fiqh ilmlari keng doirada o'rgatilagan. Yoqutiyning "Talxisul-osor" nomli kitobida keltirilishicha, Ibn Sino hanafiy mazhabida fatvo berganida 12 yoshda bo'lgan ekan [10.93.]. Somoniylar davrida Abul Fadl Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulloh Sullamiy Marvaziy Nasr Ibn Ahmad (331/943-333/945yy.), Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan Ash'as Nasafiy (vaf. 379/989y.) bu zot mashhur hadis hofizlaridan bo'lgan. Demak, Buxorodagi bunday muhit davrning o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlari madaniy muhitni yusaltirishga xizmat qildi. Bunday ma'naviy muhit ijtimoiy hayotga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qoraxoniylar davrda Buxoroda katta bunyodkorlik ishlari Raboti Malik, Masjidi kalon, Minorai kalon (Arslonxon), Vobkent minorasi, Jarqo'rg'on minorasi, Mag'oki attori masjidi hamda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroy kabi inshootlar bunyod qilingan [11.21.]. Samarqandda Ibrohim Tamg'och Bug'roxon Shohizinda maqbarasini, oliy ta'lim beruvchi madrasalar, masjidlar hammomlar va hatto shifoxonalar qurdirgan-[12.40.]ligi bilan ma'lum.

Buxorodagi ilm-ma'rifat ta'lim tizimi xususida ish olib borgan olimlar Buxoro madrasalaridan etishib chiqqan ilm ahllari haqida, madrasalarning hufuzi haqida yozib qoldirganlar. Professor N.Avliyoyqulov topgan vaqf hujjatida 1066 yili maxsus oliy madrasa qurdirganligi haqida ma'lumot mavjud [13.83.]. Qoraxoniylar davrida Yusuf Xos Xojib (1015-1070) ning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiy (XI-XIIa)ning "Hibbat ul-Haqoyiq" Mahmud Koshg'ariy (1029-1101) ning "Devoni lug'oti-turk" kabi buyuk asarlari shu davrda Buxoro va Samarqandda yaratilgan. Yusuf Xos Xojibning e'tiroficha, uning ijodiga Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning ijodiy merosi katta rol o'ynagan. Hatto ayrim manbalarda Yusuf Xos Xojib Buxoroda vafot etgan degan taxminlarni ham ilgari surilgan.

Buxoroda kalomning moturidiya ta'limotini rivojlantirgan mutafakkir Ismoil ibn Ahmad Saffor Buxoriy (1065-1139) Buxoroning islom dini arkonlarini himoya etuvchi makon ekanligini amalda isbotlab, bu g'oyani butun g'arbu-sharqqa yoyib kelgan [14.218.]. Demak, Buxoroda moturidiylikning rivojlanishini ham kuzatish mumkin. Chunki, Moturidiya ta'limoti islom ahkomlarini himoya qilivchi Ash'ariylikdan keying mashhur ta'limot hisoblanadi.

X-XI asrlarda faoliyat ko'rsatgan muhaddislar, mutakallimlar, mutasavviflar, faqihlar islom olamining diniy ilmlarga bo'lgan etiyojlarini qondiribgina qolmay, balki islom dinining keyingi asrlardagi rivoji uchun ham zamin hozirlagan edilar.

Imom al-Buxoriy hadisshunoslik ilmida butun islom olamida hozirgi kungacha ham mayoq vazifasini o'tab kelmoqda. U bu sohada o'ziga xos ilmiy yo'nalishni yaratib berdi. Hadislarni turkumlash, ularga tartib berish va mezonlarini ishlab chiqishda nafaqat o'z davrining, balki keyingi barcha davrlarning ham dahosiga aylandi.

Buxoroda hadis ilmi shahar ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Abu Ishoq Kalobodiy va unga zamondosh muhaddis Abdulloh as-Subazmuniy (vaf. 872 y.) Buxoroda turli davrlarda yashab o'tgan 42 ta roviy va muhaddislar haqida xabar beradi[15.58.]. Demak, Buxoroda o'ziga xos hadis maktablari o'sha davrdayoq shakllanganini ko'rsatadi. Kalobodiyning "Bahrul-favoid" asari ham shu ilmiy ma'rifiy muhitning mahsuli deyishga asos bor.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rstadiki, Abu Abdullo Xoja G'unjori (vaf. 920 y.), Muhammad As-San'oni (vaf. 921y.), Muhammad bin Ya'qub bin al-Horis Subazmuniy (vaf. 925 y.), Abu Bakr Fazl (vaf. 927 y.), Abu Ahmad Nabixon ibn Ishok Pasqoyiriy (vafoti 923), Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Tavovisiy (vaf. 956 y.) kabi o'sha davrning yirik muhaddis, faqih, mutasavviflari ham Abu Ishoq Kalobodiy yashagan davrda etishib chiqqanlarki, ularning boy ma'naviy merosi hali etarlicha o'rganilmagan. Ularning manbashunoslik, islomshunoslik yo'nalishlarida o'rgamilishi bo'yicha ayrim ma'lumotlar mavjud. Biroq, falsafa tarixi tasavvufiy yoki kalom ilmi qarashlari nuqtai nazaridan o'rganilmagan.

Tarixdan ma'lumki, hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy IX) asrda hadis ilmi borasida juda katta muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirilgan. Hadis ilmi musulmonlar uchun ahamiyatli bo'lgani sababli muhaddislar bu yo'lda o'zlarining samimiyligini namoyon qilib,

FALSAFA

tinmay mehnat qilib, o'z niyatlarini amalga oshirdilar. Natijada o'zlaridan keyingi avlodlar uchun yaxshi o'rnak bo'lib, himmatlarining ulug'ligi va mehnatlarining samarasi bilan Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislarini chalkashlik va o'zgarib ketishdan saqladilar. Bu yo'lda har bir muhaddis o'ziga xos uslublarni yaratib, kitoblarini tuzdilar.

Zero, butun islom olamida eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-Sihoh as-Sitta) mualliflari ham shu davrda yashab ijod qilganlar. Yana e'tiborli tarafi shundaki, mazkur oltita muhaddisning deyarli hammasi Markaziy Osiyolik bo'lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819 – 261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/ 824 – 279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniyy (202/817 – 275/880), Imom Ahmad An-Naso'iy (215/830 – 303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824 – 273/886) kabi muhaddislardir. Shular ichidan hadis ilmida "Amiral mo'miniyn" degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan Imom Buxoriy alohida e'tiborga molik shahsdir. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, Islom olamida Qur'oni karimdan keyingi manba deb e'tirof etilgan "Al-jome' as-sahih" asaridir. Bu asar "Sahihul Buxoriy" nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

Hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy "al-Jomi' as-sahih" asarini to'plashda o'zlarining yo'nalishiga xos bo'lgan bir nechta uslublarni qo'lladi va bu uslublardan ba'zilar roviylar sanadiga bog'liq bo'lsa, ba'zilar fiqhga oid uslublarda edi. Shu nuqtai nazardan ba'zan arab olimlar Imom Buxoriyni faqih olim sifatida ham tilga oladilar.

Abu Ishoq Kalobodiy asarlariga o'z davrida sharh yozgan Buxorolik alloma Abu Ibrohim Ismoil bin Muhammad al-Mustamliy Buxoriy "At-ta'arruf" asariga sharh yozib "Sharhe Taarruf" kitobi muqaddimasida: "Ustozim – shayximiz Abu Bakr Kalobodiy kitoblarini sharhlar ekanman, u kishiga hurmat va ehtiromimni bildirish maqsadida asarni Qur'on oyatlari, hadislar bilan boyitdim" [16.4914]-deydi. Bahouddin Naqshbandning shogirdlari Xoja Muhammad Porso ham bu kitobga sharh yozganliklari xususida ham ma'lumotlar bor.

Temuriylar davrining yirik mutasavvuf olimi Muhammad Porso o'zining "Faslul-xitob" kitobida o'z davrida Kalobodiy merosiga e'tibor qaratib uning hadisga oid qarashlarini iqtibos qilib keltirgani uning hadis ilmidagi tasavvufiy sharhlari mashhur ekanligini anglatadi. Xoja Muhammad Porso shunday yozadi: "Shayx, Imom, Orif, Siddiq, Abu Bakr Ibn Abu Ishoq Kalobodiy Buxoriy Rovvahalohu ruhahu "Xabarlarining ma'nolari" kitobining 183 sahifasida boshqa xadisni keltiradilar: Aytdi: bizga Muhammad ibn Hotam ibn Sa'id al-Baykandiy, aytdi: bizga Ibrohim ibn Ismoil ibn Ishoq u kishi aytdi, bizga Homidiy aytdi, bizga Sufyon aytdi, bizga Muammar aytdi, bizga Zahiriyan Solimdan u kishi otasidan roziyallohu anhu u kishi Rasululloh sollollohu alayhi vasallamdan aytdilar: S.A.V odamlarni "miati" tuyadek topasiz. Uning o'rkachi yo'q shayx rahimahulloh aytdilar: tuya yuk tashish uchun undan "budn" ("tuya turi") go'sht uchun, Ansima va Ibnatay terilari uchun mana shu foydalarining hammasi tuyada bor. Ko'pincha agar tuya sog'lom bo'lsa, ammo o'rkach unga minish uchun safarlar va uzoq yo'llarni bosib o'tish uchundir. Uning sifatlaridan bir o'zi sekin yuradi. Agar tez yurishni talab qilinsa, tez yuradi va yuguradi. Agar yur desa yuradi, to'xta desa to'xtaydi. Tezlatsangiz tezlashadi, o'ziga qo'yib bersangiz yo'lni topadi. O'zi yolg'iz sayr qiladi va tuyalar o'rtasida ham yuradi. Uzoq sayr qilishga kuchlidir. Eng qorong'i kechada ham yo'lni topib yuradi. O'zini ustida mingan kishiga mehribon bo'ladi. Agar cho'ksa qiyshayotganida mo'tadil yiqitib yubormay cho'kadi. U shu sifatleri borligi bilan boshqasidan yarim yukini ko'taradi. Jamal va Navq degan turi safar qilish qiyin, chunki u ishlatish uchun va unda yuqoridagi yaxshi axloqlar ham yo'q. Keyin Noqa va yuk tashuvchi Jamalning narxi qimmat. Uning katta yaralishi, elkasining go'shti qornining yog'i, o'rkachining kattaligi safar tuyasining bahosidan o'n barobar uning badanining oriqiligi, jismining nozikligi va zaifligi yuk ko'tarishdan Nabi sollollohu alayhi vasallam mana bu bilan zohiriy va botiniy fe'llarga ishora qildilar. Bas odamlar ichida hali "Mia" va undan yuqorisi topiladi. Alloh uchun amal qiladilar badanlarini tikadilar, amallarida doim bo'ladilar. Namoz, ro'za, haj, g'azot va boshqa zohiriy amallarda va nafl amallarda. "Mia"da Alloh uchun tahsinga sazovor narsa topilmaydi. Bandalari ichida Alloh Azza va Jalla xulqidan topilmaydi. Bas, albatta bandalarining ulug'ligi xulqlari bilan. Amallarning qabul bo'lishi, niyatlar bilan va husni xulq bilan. Payg'ambarimiz

(s.a.v.) aytdilar: qiyomat kunida taroziga eng og'ir keladigani chiroyli xulqdir. Bas amalning qiymati chiroyli xulq bilandir. Shuningdek, Allohga yaqinlik va Azza va Jalla huzurida manzilga ega bo'lish ham chiroyli xulq bilandir. Albatta kishining imoni komil bo'lishi u bilan dunyo va oxiratda najot topishi va hamma yaxshiliklarga va eng oxirgi yuqori ulug' manzil maqomotlarga etishi chiroyli xulq bilan bo'ladi. Demak, Kalobodiyning asosiy g'oyalardan biri "chiroyli xulq" egasi bo'lishdan iborat. Uning yuqorida keltirgan hadisdan ham anglash mumkinki, hadislarini sharhlashda axloqiy mavzularga ko'proq e'tibor qaratgan. Bu uning ma'naviy-axloqiy qarashlarining asoslarini tashkil etadi.

Abu Ishoq Kalobodiy merosini zamonaviy tadqiqotlar ko'pchilikni tashkil etmasada, uning fundamental tadqiqotlar uchun asos bo'lib kelganligining o'zi olim ilmiy merosining nufuzini ko'rsata oladi. Abu Ishoq Kalobodiy merosini birinchilardan bo'lib tilga olgan ingliz olimi Artur Arberri [17.97-98], hisoblanadi. U o'zining arab tilidagi nodir asarlar ro'yxatiga Kalobodiyning "At-Taarruf" asarini kiriti juda yuqori baho bergan. Uning fikriga ko'ra, Kalobodiy "So'fiylik ta'limotining ulug' bilimdoni" [18.97-98.]dir. Shu bilan birga qisman tarjima qilishga ham harakat qilgan. Shuningdek, A. Knish o'zining musulmon tasavvufi nomli monografik asarida Abu Ishoq Kalobodiy tasavvufiy merosini tanishtirishga uning o'rta asr tasavvufidagi o'rni, nazariy masalalarni o'rganishdagi uslublarini ochib bergan. Doroshukuh "Safinatu-s-sufiya" asarida uni "Sahriat va tariqat orifi, ulug' shayx" [19.103.], deb aytadi. Ulrix Rudolf "Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" nomli kitobida "tasavvuf nazariyasi va amaliyotiga oid "At-Ta'arruf" asari muallifi buxorolik Abu Bakr Kalobodiy X asrda o'zini ilohiyot nazariyalarining chuqur bilimdoni sifatida namoyon etgan" [20.121.], -deb yozadi. V.Ko'ktosh, S.Uldog', F. Sezgin, F. Karapinar, A. Habibi kabi olimlarning ishlarida ham Abu Ishoq Kalobodiy shaxsiyati uning ilmiy merosi borasidagi tadqiqotlarini amalga oshirganlar. Misrlik olim Ahmad Shamsiddin [21.65.] "at-Taarruf" asarini qayta nashr ettirgan.

O'zbekistonda ham diqqatga sazovor ishlar qilingan [22.90] O.Мавлонкулов. М. Мавлонкуловлар Kalobodiyning "at-Tarruf" asarini o'zbek tiliga ilk bor 2002 yilda tarjima qilganlar. 2009 yilda Bobir Namozov "Абу Бакр Калободий тасаввуфий қарашларининг фалсафий асослари" nomli monografiyasini "Fan" nashriyotida chop ettirgan. Shuningdek, o'zbek olimlari N.Komlov, I.Haqqulov, K.Rahimov tadqiqotlarida, kitoblarida mutasavvif merosining turli qirralari keng yoritilgan. 2022 yilda Jasur Raupov tomonidan Kalobodiyning "at-Taarruf li mazhab i ahli tasavvuf" nomi bilan mazkur asar tarjima qilinib keng kitoxonlarga taqdim etildi. Tadqiqot davomida o'rganilgan ishlar yuzasidan shunday xulosaga kelindiki, aksariyat tadqiqotchilar, olimlar murtasavvifning "at-Taarruf" ni ko'proq o'rganganlar. Biroq, uning "Bahrul-favoid" asari tilga olinsada o'rganilmagan. Shu jihatda bu asarni ma'naviy-axloqiy asoslarini, hadis ilmidagi o'rnini, falsafiy axloqiy fikr rivojidadagi ahamiyati, ijtimoiy ma'naviy muhitga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Movarounnahrda IX-XII asrlarda o'ziga xos ijtimoiy madaniy hayot shakllangan, uning o'ziga xosligi islom ilmlari ayniqsa, fiqh, hadis, kalom, tasavvuf rivojlandi. Tariqatlarning shakllanishi ham shu davrga to'g'ri keladi;

Buxoro shahrining "Kalobod" mahallasidan o'z davrining etuk tasavvuf nazariyotchisi, muhaddis va faqih Toj al-Islom Abu Bakr Kalobodiy shunday madaniy-ma'naviy muhitda yashab o'zidan mufassal asarlar qoldirdi.

X asrda Buxoroda faqihlar, hadis va tasavvuf maktablari shakllandi. Bu maktablardan ko'plab faqihlar, muhaddislar, tasavvuf olimlari etishib chiqdilar va Buxoroda islom ilmlari rivojini ta'minladilar;

O'rta asr Sharq Renessansini ta'minlagan allomalarning aksariyati Movarounnahr va Xuroson zaminidan ettirib chiqqan olimlar, mutafakkirlar bo'lib, ularning shogird va izdoshlari keyingi davrlar muvaffaqiyatlari uchun zamin hozirlagan edilar. Ularning faoliyatlarini ilm yo'lidagi harakatalari, fidoyiliklarini davom ettirdilar. Buxoro asrlar davomida Sharqning ilm-ma'rifat markazi, buyuk avliyolarga beshik bo'lgan mo'tabar zamin sifatida Buxoro faqihlari akademiyasi asoschisi Abu Hafs Kabir Buxoriy, Imom al-Buxoriy, Abu Hafs Sag'ir Buxoriy kabi buyuk olimu-ulamolarni tarbiyalab etishtirdi;

Shayxur Rais Abu Ali Ibn Sino, Tojul-islom Abu Bakr Kalobodiy, Sayx Mustamliy Buxoriy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revgariy, Xoja Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Boboi Samosiy, Mir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband, Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Alouddin G'ijduvoni va boshqa shu kabi buyuk zotlar etishib chiqqan, hali dunyo ilm ahliga, xalqimizga nomlari tanish bo'lmagan, dunyo fondlarida o'z tadqiqotchisini kutib yotgan allomalarimizning tarixiy,

FALSAFA

ilmiy merosini izlash, topish va tadqiq qilish ishlarini yanada rivojlantirish muhimdir.

ADABIYOTLARLAR RO'YXATI

1. Сейед Мухаммад Хатами. Традиция и мысль во власти авторитаризма.-М.:Изд-во Моск.Ун-та, 2001.-С.7.
2. Асророва Л.Абу Ҳафс Кабир Бухорий ва ҳанафий фикҳи.Тошкент: Ислон университети, 2014.-Б.7.
3. Хайруллаев М.IX-XII Мовароуннаҳр ва Хуросонда маданий юксалиш.Тошкент: Маънавият юлдузлари.2001.-Б.37.
4. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи муллозода.Тошкент, 2009. –Б.72.
5. Муминов А.К. “Катаиб ал-ахйар ал-Кафави (ум.в. 990/ 1582.г)” как источник по истории ислама в Маверауннахре (III/IX-VIII/XIVвв.): Автореф. Дис. Канд.ист. наук.Л., 1991.-С.3. 6.Муминов А.К. “Катаиб ал-ахйар ал-Кафави (ум.в. 990/ 1582.г)” как источник по истории ислама в Маверауннахре (III/IX-VIII/XIVвв.): Автореф. Дис. Канд.ист. наук.Л., 1991.-С.3
7. Ўрта аср шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий-фалсафий мероси энциклопедияси.- Самарқанд: ИБХМ нашриёти, 2016. -Б.72.
8. Усмонхон Темурхон ўғли, Бахтиёр Набихон ўғли. Имом Бухорий – муҳаддислар султони. Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси ДИН, 2004. -Б.5.
9. Наршахий. Бухоро тарихи.-Б.14
10. Асророва Л.Абу Ҳафс Кабир Бухорий ва ҳанафий фикҳи.Тошкент: Ислон университети, 2014.-Б.93.
11. Носир Мухаммад. Турон давлатлари ва ҳукмдорлари йилномаси (милоддан аввалги VIII асрдан милодий XX аср бошларига қадар). /Тўлдирилган 2-нашр/ Тошкент, 2011.-Б.21.
12. Бегалиев Н. Сўғд: мозий лавҳалари.(ўлкашунослик материаллари). Самарқанд, Сам ДЧТИ, 2007. Б.40.
13. Авлиякулов Н.Х. Начало дидактики. Т.: Fan va texnologiya, 2013. С.83.
14. Ибодуллаев Т. Иброҳим Саффор Бухорий. Т.:Ғафур Ғулом, 2019. –Б.218.¹ Муротов Д. Бухоролик ҳанафий ровийлар. ЎЗМУ 90 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2008.-Б.58.
15. شرح التعرف اسمائيل بن محمد. Истоил бин Муҳаммад Мустамлий. “Шарҳи таъарруф”. Қўлёзма. ЎзРФА. Шарқшунослик институти инв. № 4914.
- 16.Arberryof Katalogie of the arabic MSS in the india office. 1936.P. 97-98.
- 17.Arberryof Katalogie of the arabic MSS in the india office. 1936.P. 97-98.
- 18.Дорошукӯҳ. Сафинату-с-суфия. Лақҳнав, 1319 ҳ, (1902 й.) –Б.103.
- 19.Улрих Рудолф. Ал- Мотурудий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёт мактаби. Тошкент, 2002. –В.121.
20. أبو بكر كلابادى. تعليق عليه أحمد شمس الدين. بيروت. 1992. ص. 65.
21. Абу Бақр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. О.Мавлонқулов.М. Мавлонқулова Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва Санъат нашриёти, 2002.-Б.90.